

## MAHALLIY BYUDJETLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Komila Achilova  
Shahzoda Tohirova

Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent shahar Chilonzor tumani Gavhar ko‘chasi 1-uy  
ochilovakomila@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13324976>

**Annotatsiya:** Maqolada iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida mahalliy byudjetlarning moliya tizimidagi o‘rni va ularning daromadlari bazasini kengaytirishni takomillashtirish masalalari, hozirgi kundagi holati va boshqaruvda joriy etish tahlil qilib o‘rganilgan. Mahalliy byudjet daromadlarining konseptual asoslarini chuqur o‘rganish va ularning barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar taklif etildi.

**Kalit so‘zlar:** davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar, mahalliy byudjetlar daromadlari, mahalliy byudjetlar xarajatlari, moliyaviy mustaqillik, mahalliy boshqaruv.

### KIRISH

Jahonda global miqyosdagi integratsiya va raqobatlashuvning kuchayishi sharoitida davlat byudjetining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan mahalliy byudjetlarning o‘ziga xos xususiyatlari uslubiyotini takomillashtirishga doir ilmiy-tadqiqotlarning ahamiyati oshib bormoqda. Mahalliy byudjetlar O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetida muhim tarkibiy qismni tashkil etadi va mahalliy hokimiyatlarning faoliyat ko‘rsatishlarida moliyaviy manba bo‘lib hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy talab-ehtiyojlarni to‘laroq qondirishni hamda davlatning markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlarining bajarilishi bilan chambarchas bog‘langan holda ijro etishga imkon yaratib beradi. Mahalliy hokimiyat organlariga mahalliy byudjet daromadlarining ko‘payishi va resurslarning tejankorlik bilan sarflanishi vazifasi yuklatiladi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlarining tuzilishi va daromadlarini shakllantirishda soliqlarning o‘rni va ahamiyatini oshirish jarayonlari tadqiq etilgan. Avvalo, mahalliy byudjetga berilgan ayrim iqtisodchi olimlarning ta‘riflarini tahlil qiladigan bo‘lsak, A.A.Shernaev, N.E.Jiyanovlarning fikricha, “mahalliy byudjet – Davlat byudjetining daromad manbalari va ulardan tushumlarni, shuningdek, xarajat yo‘nalishlari va moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar miqdorini nazarda tutuvchi tegishli viloyat, tuman, shaharning pul mablag‘lari jamg‘armasidan iborat qismidir [1]. O‘z navbatida prof. T.Malikovning ta‘rif berishicha esa, “mahalliy byudjet – Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari fondini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi” [2]. N.Xaydarov fikricha mahalliy byudjetlarning daromad manbalarini ko‘paytirish va viloyatlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish uchun xorijiy investorlarni jalb etishni rag‘batlantirish zarur. Buning uchun mamlakat bo‘yicha xorijiy investorlar qanday turdagi tadbirkorlik va tijorat faoliyati bilan shug‘ullana olmaydigan soha va

tarmoqlar ro‘yxati ishlab chiqilib, qolgan barcha soha va tarmoqlarga yashil yo‘l borligi ko‘rsatilish lozim[3]. Rus olimlaridan Yu.Tumanskaya fikricha mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining rolini kuchaytirish va mahalliy ahamiyatga molik muammolarni hal etish samaradorligini oshirish zarurati mahalliy byudjetlarga daromadlarni shakllantirish tizimini ham byudjetni boshqarish nuqtai nazaridan, ham hududiy

1,3 A.A.Shernaev, N.E.Jiyanova «Davlat moliyasini boshqarish» darslik. – T.: TFI, 2019. – 365 b.

2 Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya. Darslik, Toshkent Moliya instituti. – Toshkent: 2019. 887-b.

daromadlar bazasini baholashning ishonchligi nuqtai nazaridan takomillashtirishni taklif etadi. S.Mishina mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlarini shakllantirishning umumiy prinsiplari byudjet tizimini shakllantirish tamoyillariga hamda davlat va mahalliy hokimiyat organlarining iqtisodiy tizimda bajaradigan roliga asoslanishini qayd etadi. Yuqoridagi iqtisodchilar tomonidan ilgari surilayotgan fikr mulohazalarda mahalliy byudjetlarning davlat byudjetidagi o‘rni va ularning daromadlarini shakllantirish va barqarorligini ta‘minlashning amaldagi holati tadqiq etilgan.

Mahalliy byudjetlarning hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi tutgan o‘rni va ahamiyatini yanada oshirish uchun avvalo ularning moliyaviy resurslari bazasini rivojlashtirish lozim. Mahalliy byudjetlar davlat budjetining tarkibiy elementi hisoblanar ekan avvalo jamlanma daromadlarni optimal taqsimlash orqali ularning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish mumkin bo‘ladi.

### MAHALLIY BYUDJETLAR TUZILISHI

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga binoan, mahalliy byudjet- davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.


Mahalliy byudjetlar hududiy davlat boshqaruv organlari moliyaviy tizimining birlamchi tarkibiy qismi sanaladi. Shu bilan bir qatorda, ular mahalliy organlarni o‘z oldilarida turgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy

funksiyalarni amalga oshirishlari uchun moliyaviy resurslar bilan ta'minlab turadi.

Mamlakat byudjetining tarkibi avvalo uning davlat qurilishiga bog'liqdir. Unitar tuzumga ega bo'lgan mamlakatlarda byudjet tizimi ikki bo'g'in — davlat byudjeti va mahalliy byudjetlarga ega bo'ladi. Federativ tizimga ega bo'lgan mamlakatlarda (AQSh, Germaniya) uch bo'g'in — shtatlar, o'lkalar (viloyatlar) va ularga muvofiq ma'muriy tuzilmalarning byudjetlari mavjud.

Byudjet tizimi barcha darajadagi byudjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari, byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va tashkil etish prinsiplari, ular o'rtasida byudjet jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar yig'indisini o'zida ifodalaydi. Mahalliy byudjetlar byudjet tizimida asosiy o'rinni egallaydi.

O'zbekiston Respublikasida shakllantirilgan davlat byudjeti tizimi mahalliy davlat hokimiyati organlarining ixtiyorida shakllantiriladigan 14 ta mustaqil byudjetlar majmuasini va ular tarkibidagi qariyb 190 ga yaqin tuman va shahar byudjetlarini o'zida mujassamlashtiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti tuzilmasiga Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlari va shaharlarining byudjetlari kiradi.



1.1-rasm. O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlarining tuzilishi<sup>1</sup>

1.1.rasmdan ko'rinadiki, byudjet tizimi 3 asosiy bo'g'indagi byudjetlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti - Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetini hamda respublikaga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetini;

Viloyat byudjeti – umumviloyat byudjetini hamda viloyatga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetini;

Tumanlarga bo'linadigan shahar byudjeti – umumshahar byudjetini hamda shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar byudjetlarini;

Tarkibida shaharlari bo'lgan tuman byudjeti – umumtuman byudjetini hamda tuman bo'ysunuvdagi shaharlar byudjetlarini o'z ichiga oladi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi "Byudjet Kodeksi"ning 35-moddasi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mahalliy byudjetlar yangi byudjet tuzilishi sharoitlarida byudjetlararo munosabatlarni ta'minlovchi o'ziga xos iqtisodiy kategoriyadir hamda muayyan hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tashkil etiladigan pul mablag'lari fondlarining shakllantirilishi, taqsimlanishi, ishlatilishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarning muvofiqligini ham bildiradi.

Hozirgi sharoitda mahalliy byudjetlarni shakllantirishda asosiy e'tiborni mamlakat taraqqiyotining alohida bosqichlarida mahalliy byudjetlarni shakllantirishdagi ziddiyatlar manbalarini ajratib ko'rsatish va o'rganish imkoniyatini beruvchi mahalliy byudjetlarning paydo bo'lishi va shakllantirilishining tarixiy rivojini tahlil etishga qaratish lozim.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va hududiy muammolarining hal etilishida mahalliy byudjetlarning roli shunda namoyon bo'ladiki, u yoki bu hudud moliyaviy resurslari balansida mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlari markaziy o'rin tutadi. Hududlar moliyaviy resurslari tarkibida mahalliy byudjetlar mablag'lari qatori byudjetdan tashqari maxsus fondlarning joylardagi bo'limlari mablag'lari, davlat mulki zaminidagi korxonalar moliyaviy resurslari hamda davlat krediti maydonga chiqadi.

#### MAHALLIY BYUDJETLARNING XUSUSIYATLARI

Yuqorida keltirilgan ilmiy tahlilga asoslanib, biz ham mahalliy byudjetlarning xususiyatlarini ochib berishga harakat qilamiz.

Birinchidan, mahalliy byudjetlar bu davlatning moliyaviy rejasi hisoblanadi. Moliyaviy reja esa, "umumiy va oddiy ko'rinishda, moliyaviy rejalarni tuzish va amalga oshirish jarayoni nazarda tutiladi. Moliyaviy rejani, xuddi uni ishlab chiqish, yaratish yoki tuzish jarayoni kabi moliyaviy ko'rsatkichlarni ijodiy tahlil qilish, umumlashtirish va o'zaro bog'lash tizimi sifatida tushunish kerak."<sup>8</sup> Moliyaviy rejalashtirish o'z navbatida moliyaviy prognozlashtirishni taqozo etadi. Moliyaviy prognozlashtirishsiz esa moliyaviy rejalashtirish mukammal bo'lmaydi. Mahalliy byudjetlar moliyaviy reja xususiyatiga ega bo'lishi, uning elementlari bo'lgan: daromadlar, xarajatlarni prognozlashtirishni talab qiladi.

Ikkinchidan, mahalliy byudjetlar pul fondi hisoblanadi va shu xususiyati orqali u o'zida moliyaviy mablag'larni ifoda etadi. Bu moliyaviy mablag'lar esa, davlatning funksiyasini bajarishni moliyaviy jihatdan ta'minlanishiga xizmat qiladi. Bu yerda mahalliy byudjetlar davlatning iqtisodiy-ijtimoiy funksiyasini bajarishning muhim omili sifatida yuzaga chiqadi. Davlatning moliyaviy-ijtimoiy funksiyasini bajarish imkoni maksimal bo'lishi yoki barchasini to'liq bajarish imkoni cheklangan. Albatta bu pul fondining moliyaviy mablag'lariga bog'liq bo'ladi. Bu o'z navbatida moliyaviy mablag'larning hajmining chamalashni amalga oshirib borish zarur bo'ladi. Shu jihatdan olganda mahalliy byudjetlar davlat funksiyalarini amalga oshirish vositasidir.

Uchinchidan, mahalliy byudjetlar milliy daromadni qayta taqsimlab turishga xizmat qiladi. Mahalliy byudjetlar orqali milliy iqtisodiyotning tegishli hududi doirasida mamlakat miqyosida yaratilgan yalpi ichki mahsulotning bir qismini shu hududga taqsimlashni ta'minlaydi. Bu yerda mahalliy byudjetlarning makro va mikro darajada taqsimlovchi moliyaviy instrument xususiyati yuzaga chiqadi. Mahalliy hududlar doirasidagi milliy iqtisodiy va moliyaviy siyosatni amalga oshirishda mahalliy byudjetlar muhim vositachi sifatida ishtirok etadi.

To'rtinchidan, mahalliy byudjetlar mamlakat miqyosidagi pul resurslarining milliy iqtisodiyot manfaatlari nuqtai nazaridan optimal taqsimlanib turilishini ta'minlaydi va shu orqali hududlarning turli xil rivojlanishi natijasida kelib chiqadigan moliyaviy taqchilliklarni muvofiqlashtirib turadi. Iqtisodiy qonuniyatga ko'ra, hududlarning bir tekisda rivojlanishi murakkab masala hisoblanadi. Hududlar miqyosidagi moliyaviy muammolar milliy doirada tus oladiki, bu davlat miqyosida yuzaga kelgan hududlarni moliyaviy barqarorligini ta'minlash miqyosida markazlashgan pul fondi shaklidagi mahalliy byudjetlarga ehtiyoj tug'iladi. Mahalliy byudjetlar bu yerda hududlar o'rtasida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash omili sifatida mavjud bo'ladi. Har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tabaqalashuvi mavjud bo'lar ekan, har bir hududga tegishli mahalliy byudjetlarning daromadlarini prognoz qilish iqtisodiy zarur bo'ladi. Beshinchidan, mahalliy byudjetlar investitsion fond sifatida mavjud bo'ladi. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda investitsion loyihalarni moliyalashtirishda asosiy moliyaviy manba sifatida ishtirok etadi. Ayniqsa, hududlardagi aholi manfaatlariga xizmat qiluvchi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarda mahalliy byudjetlarning roli oshib bormoqda. Mahalliy doirasidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning ijobiy hal etilishi mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligiga bog'liq bo'ladi. Agar, mahalliy byudjetlarda moliyaviy mablag'lar yetarli bo'lsa, mahalliy hokimiyatlarning muhim bo'lgan-hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish funksiyasining moliyaviy ko'rinishi sifatida yuzaga chiqadi. Shu jihatdan olganda mahalliy byudjetlar milliy iqtisodiyot darajasidagi va hududlarga daxldor bo'lgan davlat Dasturlarini amalga oshirishning moliyaviy imkoniyati ko'rinishida ham namoyan bo'ladi. Umumiy xulosa qilib aytganda har qaysi davlatning qaysiki byudjet tuzilishi bir necha bosqichlaridan iborat bo'lgan davlatlarda mahalliy byudjetlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish katta ahamiyatga ega. Bu esa, davlatning hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining qanchalik amalga oshirishida muhim sanaladi.

#### XULOSA

Xulosa o'rinda shuni aytish joizki, Iqtisodiy mustaqillik haqida mahalliy byudjetlar daromad bazasining o'sishiga ijobiy xulosa chiqarish uchun ko'rsatkichlarning o'sishi bilan birga birlashtirilgan daromadlar ulushining o'sishi dinamikasi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan byudjet resurslari miqdorining

ortishi hamda investitsiyalarning o'zlashtirilishi, real investitsiya hajmining ortishi va shunga bog'liq holda iqtisodiy salohiyatdan foydalanish sur'atlarida ham sezilarli o'sish kuzatilishi lozim.

Mahalliy byudjetlarning daromadlarini prognoz qilish va ularning daromad bazasini mustahkamlashda foydalanish uchun taklif etilgan o'zaro integratsion bog'liqlik mexanizmlarining samaradorligini ta'minlovchi uslubiy algoritmining moliya-soliq amaliyotiga keng joriy qilinishi mahalliy byudjetlarning daromadlarini prognoz qilish va ularning daromad bazasini mustahkamlashning o'zaro uyg'unligini ta'minlaydi, prognoz ko'rsatkichlari bilan daromad manbalari o'rtasida ilmiy asoslangan moliyaviy bog'liqlik ta'minlanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- [1] O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi, 2013 yil 26 dekabr, 35- modda
- [2] O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. <https://lex.uz>
- [3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
- [4] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. Toshkent shahri, 2017-yil 13-dekabr
- [5] O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi "Byudjetnoma 2024-2026", T-2023 yil.
- [6] T.S. Malikov, O. Olimjonov Moliya. Darslik. –T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2019, 453-bet.
- [7] Кашина Н.В. Налоговый потенциал в системе бюджетного прогнозирования. // «Финансы» №2, 2002, стр. 78-79.
- [8] Кашина Н.П. Использование налогового потенциала региона в системе государственного финансового планирования. // М.: «Финансы и статистика». 2003, стр. 246
- [9] Кузнецов С.П. Местное самоуправление: новый этап становления.// «Финансы» №1, 2003, стр. 13-16.
- [10] A.A. Shernayev, N.E. Jiyanova "Davlat moliyasini boshqarish" darslik -T: TMI, 2019-365-b.